

1. v. y. p. c.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI



OZIQ-OVQAT TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

**MAXSUS FANLARNI O‘QITISH METODIKASI
FANI O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 700000 - Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari

Ta‘lim sohasi: 720000 - Ishlab chiqarish va ishlov berish sohalari

Ta‘lim yo‘nalishi: 70720101 - Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo‘yicha)

Fanning nomi	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi
Fan/modul kodi	MFO'MI106
Fan/modul turi	Majburiy
O'quv yili	2024/2025
Fan semestri	I
Ta'lim tili/turi	O'zbek/kunduzgi
Fanga ajratilgan soat/kredit	180/6
Auditoriya soat	72
Mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soat	108

I.FANNING MAZMUNI

Fanni maqsadi: 70720101-Oziq-ovqat texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha) tahsil olayotgan magistr'larga texnika sohasida professional pedagog va ilmiy faoliyat olib bora olabigan kadrlarni tayyorlashdan iborat. «Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi» fanining vazifalari oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarini o'qitish xususiyatlarini, o'qitish jarayoni va uning bosqichlarini, ma'ruza darslariga tayyorlanish, ularni sifatli o'tkazish asoslarini, seminar (amaliy) darslarga tayyorlanish va ularni sifatli olib borish, mutaxassislik fanlar bo'yicha ish o'yinlari olib borish va boshqa zamonaviy interaktiv va masofaviy o'qitish uslublarida darslar olib borishi, o'qitish va tarbiyaning uzviy bog'liqligini ta'minlash, muammoli o'qitish usullarini magistrantlarga o'rgatishni qamrab oladi.

Fanning vazifasi: muhandislik tafakkurlarni shakllantirish uchun dars o'tishda qo'llaniladigan asosiy metodlar bilan tanishtirish, ma'ruza, amaliy, seminar darslarini tashkil etish, o'quv jarayonini tashkil etish va uni takomillashtirish, fanni o'rganishning ko'rgazmali, information ta'minoti asosida talabalarda mutaxassislik fanlardan dars o'tish malakasini hosil qilish bo'yicha bilim berishdir

II. ASOSIY NAZARIY QISM (Ma'ruza, amaliy (seminar) va mustaqil ta'lim mavzulari)

II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi

№	Modul nomi	Ma'ruza mashg'ulotida ko'riladigan mavzular	Amaliy (seminar) mashg'ulot bo'yicha mavzulari	Mustaqil ta'lim va mustaqil ish mavzulari
1	1-mavzu. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash modeli va "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanining predmeti, maqsadi, vazifalari	O'zbekistonda Kadrlar tayyorlash modeli va konseptual asosi Kadrlar tayyorlash va milliy modelini amalga oshirishda "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fani, uning tutgan o'rni va ahamiyati	Mutaxassislik fanlaridan ma'ruzaga tayyorgarlik ko'rish va uni o'qitish metodikasi	O'qitish metodlari funtsiyasi, strategiyasi va tashkiliy shakllari
2	2-mavzu. Mutaxassis kadrlarga qo'yiladigan talablar va uning huquqiy- me'yoriy hamda o'quv-metodik hujjatlarda aks etishi	Kadrlar tayyorlash maqsadi va uni Davlat ta'lim standartlarida aks etishi O'quv-me'yoriy hujjatlar va o'quv-metodik ishlar, ularga qo'yiladigan talablar	Seminar (amaliy) mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'qitish metodikasi	Kadrlar tayyorlash maqsadi va uni Davlat ta'lim standartlarida aks etishi
3	3-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda foydalaniladigan asosiy metodlar, ularni tanlash va qo'llash amaliyoti	Metodika va ta'lim texnologiyasi. Ta'lim tizimiga yondashuvlar Dars o'tish metodlari va ularni tanlashning asosiy mezonlari. Maxsus fanlarni o'rganishda qo'llaniladigan asosiy universal va xususiy metodlar. Verbal metodlar va uning asosiy usullarixususiyatlariga ko'ra ajratish	Mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruz seminar (amaliy) mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'qitish metodikasi	Guruhlarni juftlik va kichik guruhlarga bo'lib dars o'tish va modellashtiruvchi amaliy o'yinlar metodi
4	4-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishning ko'rgazmali, texnik va informatsion ta'minoti	Maxsus fanlarni o'qitishda ko'rgazmalilik, texnik va axborot ta'minotining zaruriyati va tutgan o'rni Tarqatma materiallar, ularning tutgan o'rni. Ko'rgazmali va	Mutaxassislik fanini o'qitishda ko'rgazmali qurollardan va texnik vositalardan	O'qitish vositalarni tutgan o'rni, turlari, qo'llash usullari

		tarqatma materiallar tayyorlash hamda ulardan foydalanish INTERNET-axborot texnologiyalar, interaktiv va masofaviy o'qitish texnologiyalarini tayyorlash va ulardan foydalanish metodikasi	foydalanish metodikasi	
5	5-mavzu. Maxsus fanlarni o'qitishda ma'ruza va unga qo'yiladigan talablar	Ma'ruza o'quv jarayonining asosiy bo'g'ini. Ma'ruzaning funksiyalari va turlari Ma'ruzaga qo'yiladigan asosiy talablar Ma'ruza o'qishda foydalaniladigan asosiy metodlar	"O'quv me'yoriy hujjatlar ta'lim mazmuni va o'qitish mazmunini tuzishning asosi sifatida"	Ma'ruza o'qishga texnologik yondashuv va ma'ruza darsini texnologik xaritasini tuzish
6	6-mavzu. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish metodikasi	Amaliy mashg'ulot va seminar darslari. Seminarining o'quv jarayonida tutgan o'rni, asosiy funksiyalari va turlari Seminar darslarining bilim zaxirasiga ta'siri va o'ziga xos jihatlari	Ta'lim maqsadlarini belgilash maxsus fanni o'qitishni loyihalash va rejalashtirishning asosi sifatida	Seminar darsini texnologik yondashuv asosida tashkil etish
7	7-mavzu. Metodlar va ko'rgazmalilikni fan va uning mavzulariga moslashtirish	Mutaxassislik fanlarning fanlar tizimida tutgan o'rni, umumiy xususiyatlari va bir-biridan farqlanuvchi jihatlari Tanlangan metodlarni o'rganilayotgan fan, mavzularga moslashtirish, yangi variantlarini yaratish	Maxsus fanni o'qitishda qo'llaniladigan o'qitish metodlari	Mutaxassislik fanlarning o'zaro bog'liqligi, o'ziga xos xususiyatlari va ularni metodlarni tanlashda hisobga olish
8	8-mavzu. Maxsus fanlarni o'rganishda mustaqil ta'limni tashkil etish	O'quv jarayonida talabalar mustaqil ishlashining tutgan o'rni. Mustaqil ta'limga alohida diqqat qaratilishi Mustaqil ishni tashkil qilishning xususiyatlari va tamoyillari, shakllari Mustaqil izlanishning ijodiy shakllari	Maxsus fanning o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim shakllari	Fanga va ilmiy izlanishga qiziqish uyg'otishda talabalar ilmiy to'garaklari, olimpiadalar roli va ahamiyati
9	9-mavzu. Maxsus fanlardan o'quv amaliyotini tashkil etish va o'tkazish	Muhandis-pedagoglar tayyorlashda ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik ish (amaliyot)ning tutgan o'rni va roli Amaliyot (ilmiy pedagogik ish) o'tovchi talaba hamda unga rahbarlik qiluvchining vazifalari	Maxsus fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan ta'lim vositalari	Mustaqil dars o'tishga tayyorlanish va uni o'tkazish
10	10-mavzu. Kadrlar tayyorlash sifati va uni nazorat qilish	O'quv jarayonida nazoratning o'rni, roli va tamoyillari Ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish turlari, shakllari va metodlari	Maxsus fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish va rejalashtirish asoslari	O'quv jarayonini tashkil qilish, talabalar bilimini sinash va baholashda jahon amaliyotini qo'llash

III. Fanni o'qitish natijalari / shakllanadigan kompetensiyalar

Ushbu fanni o'zlashtirish natijasida, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:

1. "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanini o'zlashtirish jarayonida magistrantlar "Magistratura to'g'risidagi nizom"ga ko'ra ilmiy-pedagogik, ilmiy-ijodiy, ilmiy-tadqiqot va tajriba, ishlab chiqarishda boshqaruv, shuningdek bakalavriat ta'lim yo'nalishiga muvofiq boshqa faoliyat turlari bo'yicha ham shug'ullanishlanishlari uchun manbalarni o'rganishdi (**bilim**);

2. Magistrantlar "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi" fanini o'zlashtirish jarayonida Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi o'z xususiyatiga ko'ra mutaxassislik fanlaridan ham pedagogik fanlardan ham ajralib turadi. Uni o'rganish bir tomondan kasb egallashga qaratilgan mutaxassislik fanlarini puxta bilishni talab qilsa, ikkinchi tomondan, uni yoshlarga o'rgatish uchun zarur bo'lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalarini, xullas, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, amalga oshirish mahoratiga ega bo'lishadi (**ko'nikma**);

3. Magistrantlar o'rganishda bir tomondan, didaktik jihat, ya'ni nimani o'rganish asosiy rol o'ynasa, ikkinchi tomondan, metodik jihat – qanday o'rganish, o'qitish asosiy rol o'ynaydi. Nimani o'qitishni mutaxassislik fanlari maqsadi, mazmuni ifodalasa, qanday o'qitish, o'rgatish vazifasini maxsus fanlarni o'qitish metodikasi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak (**malaka**).

IV. Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish;
- ma'ruzalar tayyorlash;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- chizmalar, yani mahsulot ishlab chiqarishning texnologik chizmasini chizish va asoslash.
- multimediali taqdimotlar yaratish.

V. Kreditlarni olish uchun qo'yiladigan talablar

Joriy, oraliq va yakuniy nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini muvaffaqiyatli topshirish.

Asosiy adabiyotlar:

1. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi: Darslik / D.Tojiboyeva; – T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. – b..
2. Ниёзов З.Д.. «Махсус фанларни ўқитиш методикаси» фани бўйича ўқув қўлланма: Ўқув қўлланма // - Самарқанд: СИСИ, 2015. 112 бет
- 3 K.K.Sattarov, S.K.Kuzibekov, A.O.Uzaydullayev, G.G.Tuxtamishova “ Oziq-ovqat sanoati xom ashyosi” darslik “ Soliq print” Guliston 2023.274
4. М.Ю.Маҳкамова Махсус фанларни ўқитиш методикаси фанидан амалий машғулотлар учун услубий қўлланма. Тошкент-2020 й
- 5.G.Q.Tuxtamishova, K.K.Sattarov “Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari” o'quv qo'llanma “Ziyo nashr-matbaa” Sirdaryo 2022

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1.2.12.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. –Toshkent 2018 .
2. Hakimova M.F., Musaxanova G.M. Kasbiy pedagogika. Darslik. – T. TDIU, 2019 y. - 339 b.
- 3.P.J. Fellows, Food Processing Technology: Principles and Practice 3rd Edition:Woodhead Publishing, USA, 2009

Axborot manbaalari

1. <http://tkti.uz>
2. http://www.treko.ru/show_dict_1552,https://psymsuotvety.jimdo.com/pedagogika/26-pedagogicheskaya-sistema-vo'dayuqixsya-nemetskix-pedagogov.
3. www.collegeboard.com
4. <http://www.voppsy.ru/issues/1989/893/893113.htm>
5. <http://iim.uz/>
6. <http://inosmi.ru/usa/20120915/199230530.html>
7. www.edu.ru
8. <http://vp-ch.ru/shtainer>
9. <http://www.ziyo-net.uz>
10. <https://stat.uz/uz/>
11. <https://www.natlib.uz/>

Guliston davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/modul uchun ma'sul:

G.K.Tuxtamishova - GulDU, “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasida dotsenti t.f.f.f (PhD)

Taqrizchilar:

A.T.Ruziboyev - TKTI, “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida mudiri, t.f.n. porf.
K.K.Sattarov- GulDU, “Oziq-ovqat texnologiyalari” kafedrasida professori, t.f.d.

Izoh: Ushbu fan dasturi Curtin university ta'lim dasturlari asosida takomillashtirildi ta'lim dasturlari asosida takomillashtirildi.